

TADBIRKORLIK RISKI TUSHUNCHASINING NAZARIY TAHLILI

Abduxamid Abdumalikovich Bektemirov

Sharof Rashidov nomidagi

Samarqand davlat universiteti dotsenti,

iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori

Annotatsiya. *Mazkur maqolada tadbirkorlik faoliyatida risk tushunchasining mazmun-mohiyati chuqur tahlil qilinib, uning “risk” va “tavakkalchilik” kategoriyalariga ajralgan dual tabiati ilmiy asosda yoritilgan. Tadqiqotda risk – obyektiv ehtimollik asosidagi xavf-xatarli holat sifatida, tavakkalchilik esa – noaniqlik sharoitida qabul qilinadigan ongli qaror va xulq-atvor sifatida talqin qilinadi. Klassik (Nayt, Keynes), zamonaviy (ISO 31000, COSO ERM) va xulq-atvor iqtisodiyoti yondashuvlari sintez qilinib, muallif tomonidan risk va tavakkalchilikni integratsiyalashgan boshqaruv modeli taklif etiladi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, ushbu ikki kategoriyani differensiyalash tadbirkorlik risklarini samarali boshqarish, strategik qarorlar sifatini oshirish hamda noaniqlikni boshqaruv instrumentiga aylantirish imkonini beradi.*

Kalit so‘zlar: *tadbirkorlik riski, tavakkalchilik, noaniqlik, risk menejmenti, dual model, qaror qabul qilish, Expected Utility, effectuation, ISO 31000, COSO ERM*

KIRISH

Zamonaviy iqtisodiyotda tadbirkorlik faoliyati yuqori darajadagi noaniqlik va risklar bilan tavsiflanadi. Raqamli transformatsiya, global raqobat va tezkor texnologik o‘zgarishlar sharoitida risk tushunchasi faqatgina xavf sifatida emas, balki strategik imkoniyat sifatida ham talqin qilinmoqda. Shu nuqtai nazardan, riskni boshqarish tizimlarini takomillashtirish ilmiy va amaliy jihatdan dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Biroq mavjud ilmiy adabiyotlarda “risk” va “tavakkalchilik” tushunchalari ko‘pincha sinonim sifatida ishlatiladi. Bu esa boshqaruv qarorlarining metodologik asosini zaiflashtiradi. Mazkur maqolada ushbu ikki tushunchaning nazariy differensiyasi ishlab chiqilib, ularning tadbirkorlik faoliyatidagi o‘rni va boshqaruvdagi roli tizimli asosda ochib beriladi.

ADABIYOTLAR SHARHI.

Risk tushunchasi iqtisodiy nazariyada ilk bor Frank Knight tomonidan “Risk, Uncertainty and Profit” (1921) asarida o‘rganilgan. U riskni o‘lchanadigan ehtimollik sifatida, noaniqlikni esa o‘lchab bo‘lmaydigan holat sifatida ta’riflaydi².

John Maynard Keynes esa noaniqlikni iqtisodiy qarorlarning ajralmas elementi sifatida ko‘rib, subyektiv kutishlar rolini ta’kidlaydi³.

² Knight F. H. Risk, Uncertainty and Profit. – Boston: Houghton Mifflin, 1921.

³ Keynes J. M. The General Theory of Employment, Interest and Money. – London: Macmillan, 1936.

Zamonaviy yondashuvlarda, xususan Xalqaro standartlashtirish tashkiloti tomonidan ishlab chiqilgan ISO 31000 standartida risk “noaniqlikning maqsadlarga ta’siri” sifatida talqin qilinadi⁴.

“Committee of Sponsoring Organizations of the Treadway Commission” modeli esa riskni strategik boshqaruv bilan integratsiyalashgan tizim sifatida ko‘radi⁵.

Xulq-atvor iqtisodiyotida Daniel Kahneman va Amos Tversky riskni insonning psixologik xususiyatlari bilan bog‘lab tushuntiradi⁶.

Biroq yuqoridagi yondashuvlarda “risk” va “tavakkalchilik” kategoriyalari o‘rtasidagi aniq chegaralar yetarli darajada ochib berilmagan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot tizimli tahlil asosida risk va tavakkalchilik kategoriyalarining o‘zaro bog‘liqligini aniqlash, klassik va zamonaviy nazariyalarni komparativ tahlil orqali solishtirish, abstraksiya va sintez usullari yordamida yangi konseptual model ishlab chiqish, deduktiv yondashuv orqali umumiy nazariyadan amaliy xulosalar chiqarish kabi metodlarga asoslanadi.

Tadqiqot modeli “Noaniqlik - Risk (obyektiv holat) - Tavakkalchilik (subyektiv qaror) - Natija - Boshqaruv mexanizmi” mantiqiy zanjiri asosida olib boriladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Iqtisodiy adabiyotlarda “risk” va “tavakkalchilik” tushunchalariga oid yondashuvlarni tahlil qilish asosida bizning mualliflik yondashuvimiz quyidagicha:

Risk – bu tashqi va ichki omillar ta’sirida yuzaga keladigan obyektiv ehtimollikdagi xavf-xatarli holat;

Tavakkalchilik – bu ushbu risk sharoitida qabul qilinadigan subyektiv qaror va xulq-atvor modeli.

1-jadval

Risk va tavakkalchilik tushunchalarining nazariy differensiyasi

Mezoni	Risk	Tavakkalchilik
Tabiati	Obyektiv	Subyektiv
Mazmuni	Holat	Qaror
O‘lchanishi	Statistik ehtimollik	Subyektiv baho
Boshqaruv obyekti	Risk manbalari	Qaror qabul qilish

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holatda “risk” va “tavakkalchilik” tushunchalari va ularning boshqaruv samaradorligidagi ahamiyatini ifodalashda quyidagi dual modelni taklif etamiz.

$$\text{Risk (R)} + \text{Tavakkalchilik (T)} = \text{Boshqaruv samaradorligi (BS)}$$

⁴ ISO 31000: Risk Management – Guidelines. – Geneva: ISO, 2018.

⁵ COSO. Enterprise Risk Management Framework. – New York, 2017.

⁶ Kahneman D., Tversky A. Prospect Theory: An Analysis of Decision under Risk // Econometrica, 1979.

Bu yerda,

R → tashqi muhitdan keluvchi xavf;

T → menejerning qaror qabul qilish sifati;

BS → natijaviy samaradorlik.

Boshqaruvdagi o‘rniga ko‘ra riskni aniqlash bu tahliliy-analitik jarayon hisoblansa, tavakkalchilik - bu strategik qaror hisoblanadi. Shu jihatdan korxonada risklarini boshqarish tizimini samarali ishlashda riskni kamaytirish emas, balki tavakkalchilikni optimallashtirish muhimroq hisoblanadi.

Tadbirkorlik subyektlaridagi boshqaruv amaliyotida KRI tizimi orqali risk monitoringini doimiy amalga oshirib borish, “risk appetite” asosida qarorlar qabul qilish va “Effectuation” ya’ni natijaga yo‘naltirilgan harakat yondashuvi orqali moslashuvchan strategiyalar ishlab chiqishga e’tibor qaratish risklarni boshqarishda hamda faoliyat samaradorligiga erishishda muhim jihat hisoblanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijasida risk va tavakkalchilik tushunchalari o‘zaro bog‘liq, ammo mohiyatan farqli kategoriyalar ekanligi, risk - obyektiv hodisa, tavakkalchilik esa subyektiv boshqaruv qarori ekanligi, ularni differensiyalash boshqaruv samaradorligini oshirishi hamda integratsiyalashgan model ERM tizimlarini takomillashtirishga xizmat qilishi asoslandi.

Shu nuqtayi nazardan, tadbirkorlik subyektlarida dual model asosida risk-menejment joriy etish, tavakkalchilikni baholash uchun xulq-atvor indikatorlarini ishlab chiqish hamda O‘zbekistonda risk boshqaruvi metodologiyasini milliy sharoitga moslashtirish lozim deb hisoblaymiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Knight F. H. Risk, Uncertainty and Profit. – Boston: Houghton Mifflin, 1921.
2. Keynes J. M. The General Theory of Employment, Interest and Money. – London: Macmillan, 1936.
3. ISO 31000: Risk Management – Guidelines. – Geneva: ISO, 2018.
4. COSO. Enterprise Risk Management Framework. – New York, 2017.
5. Kahneman D., Tversky A. Prospect Theory: An Analysis of Decision under Risk // *Econometrica*, 1979.
6. Drucker P. Innovation and Entrepreneurship. – New York: Harper, 1985.
7. Hubbard D. The Failure of Risk Management. – Wiley, 2009.